

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TURLI YOSH GURUHLARIDA RUS TILIGA O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Razzakova Dilnoza Akramovna,

QVPMM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
[dilnozazzakova372@gmail.com](mailto:dilnozazzakova372@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932361>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rus tilini turli yosh guruhlarida o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda o'yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar hamda integrativ yondashuvlarning samaradorligi o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari innovatsion metodlar bolalarda rus tiliga bo'lgan qiziqishni oshirishi, lug'at boyligini kengaytirishi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, rus tili, innovatsion yondashuv, o'yin texnologiyalari, AKT, interfaol metodlar, kommunikativ kompetensiya.

**Аннотация.** В данной научной статье проанализированы теоретические и практические аспекты использования инновационных подходов в процессе обучения русскому языку в организациях дошкольного образования в различных возрастных группах. В ходе исследования, с учетом психологических особенностей детей дошкольного возраста, была изучена эффективность игровых технологий, информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов и интегративного подхода. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что инновационные методы способствуют повышению интереса детей к русскому языку, расширению словарного запаса и формированию коммуникативной компетенции.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, русский язык, инновационный подход, игровые технологии, ИКТ, интерактивные методы, коммуникативная компетенция.

**Abstract.** This scientific article analyzes the theoretical and practical aspects of using innovative approaches in teaching the Russian language in preschool educational institutions across different age groups. During the research process, taking into account the psychological characteristics of preschool children, the effectiveness of game-based technologies, information and communication technologies (ICT), interactive methods, and integrative approaches was examined. The results of the experimental study demonstrated that innovative methods increase children's interest in the Russian language, expand their vocabulary, and play an important role in the development of communicative competence.

**Keywords:** preschool education, Russian language, innovative approach, game-based technologies, ICT, interactive methods, communicative competence.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bo'ljak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'lining asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining maqsadini, bola ruhiyatini rivojlantirish qoidalariga amal qilishni o'rgatadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun tarbiyachi maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanini chuqur egallashi lozim. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini o'quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uning yechimini to'g'ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarning to'g'ri yechimini topishga yo'naltiradi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani eng muhim asosiy pedagogik munosabatlar

sabablarini aniqlaydi, uni pedagogik jarayonda o'rganadi. Ushbu fan bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu sababdan o'quv qo'llanmada maktabgacha pedagogika fanining nazariy va amaliy masalalarini yoritib berishga alohida e'tibor qaratildi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga, jahon mutafakkir, m a'rifatparvar pedagog olimlarining asarlariga suyanan holda komil insonni tarbiyalashning qonun, qoida va tamoyillariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilmoqda.[1] Shuningdek, 2019–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari; 2025–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan. Darhaqiqat mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borayotgan ta'lim sohasidagi izlanishlar, qaror farmoyishlar o'zini oqlamoqda albatta. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Har bir pedagog o'quvchilarni yanada yaxshi jalb qilish va ilhomlantirish uchun o'qitish amaliyotini takomillashtirishi yo'llarini doimo izlash muhim. Innovatsion o'qitish usullari ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va o'rganishga bo'lgan muhabbatni rivojlantiruvchi dinamik ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi. O'qitishning zamonaviy hamda innovatsion yondashuvlar asosini quyidagilarga bo'lishimiz mumkin: Qadriyatlarga asoslangan ta'lim, bu qadriyatlar bilan ishlaydigan ta'limga yondashuv. Qadriyatlarga asoslangan ta'lim - bu qadriyatlarni birlashtirgan ta'lim usuli.

Bu akademik samaradorlikni oshiradigan va bolalarga umrbod ijtimoiy va shaxslararo ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradigan mustahkam o'quv muhitini yaratadi. Texnologiyaga asoslangan ta'lim. Yoshlarni ta'limga jalb qilishning ajoyib usuli texnologiyaga asoslangan ta'limdir. Yosh o'quvchilarga yordam berish uchun ushbu ta'lim uslubida texnologiya qo'llaniladi. Masalan, kompyuter dasturlari texnologiyaga asoslangan o'quv mashg'ulotining bir qismi sifatida o'quvchilarga quyosh tizimi haqida o'rgatishi mumkin. Bolalar o'zlariga eng yaxshi tanish bo'lgan vositalar yordamida o'rganish jarayonini osonlashtirishlari mumkin. Loyihaga asoslangan ta'limdan foydalanish bolalarni o'rganishga jalb qilishning ajoyib usuli hisoblanadi. Bolalar kelajakda foydalanishlari mumkin bo'lgan haqiqiy loyihalar ustida ishlashlari mumkin. Loyihaga asoslangan o'quv faoliyati talabalarga o'quv jarayonida yuzaga keladigan barcha imkoniyatlarni o'rganish imkonini beradi. Interfaol tadbirlarni birlashtirish bunda turni tuman va qiziqarli tadbirlarni olib borish orqali bolalarda qiziqishlarni orttirishga

qaratilgan. Viktorina va testlar orqali o'rganish Baholash har bir ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismidir. Viktorinalar va testlar tushunishni baholashga yordam beradi va bolalar uchun ijodiy o'qitish usullarini qo'llashda qo'shimcha e'tibor talab qilishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlaydi.

Tarbiyachi mashg'ulotda boshqaruvchi, bolalarlar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Agar biz o'z ishimizda shu narsani amalga oshira olsak, yangi innovatsion texnologiyani qo'llagan bo'lamiz. Tarbiyachi kerakli interfaol metodlarni berilmoqchi bo'lingan bilim hamda mavzu asosida belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda tanlay olishi zarur. O'z navbatida bu metodlardan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga e'tibor qilish talab etiladi: bolalarning o'yin faoliyatlari uchun kun tartibiga ko'ra ajratilgan vaqtdan, o'yinni rivojlantirish uchun qulay sharoit ajratish va undan to'liq foydalanish; o'yinga rahbarlik qilishda bolalarni har tomonlama rivojlantirishni va o'yinlarning har xil turini mustaqil tashkil etish ko'nikmasini shakllantirishni amalga oshirish; o'yinlarni bolalarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olib tashkil etish; o'yindan bolalar hayotini tashkil etish shaklida foydalanib, bolalarning o'yindagi hayotlari qiziqarli, mazmunli bo'lishga, o'yinda xatti-harakatning jamoa shaklining mustahkamlanishiga erishish.

Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy qoidalariga tayanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarni o'z ichiga oldi:

ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;

pedagogik kuzatuv;

suhbat va diagnostika;

tajriba-sinov ishlari;

natijalarni taqqoslash va umumlashtirish.

Har bir guruhda rus tilini o'qitish jarayoni bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etildi. Kichik guruhlarda asosiy e'tibor eshitish va takrorlashga, o'rta guruhlarda so'z boyligini kengaytirishga, katta va tayyorlov guruhlarida esa oddiy muloqot va dialoglarni shakllantirishga qaratildi.

Didaktik o'yin, multimedia vositalari, sahnalashtirilgan mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning rus tilidagi muloqotni o'rgatishning yeng mos usuli hisoblanadi. Bu bolalarning qiziqishi va faolligini uyg'otishi va ular ushuncha qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlarda o'zini namoyon qilish imkoniyatini berishi, yangi bilimlarni tezroq va mustahkamroq o'zlashtirishga yordam berishi bilan shet tilidagi muloqotni amalga oshirishda til ko'nikmalarini va nutq qobiliyatlarini shakllantiradi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog va metodistlarining pedagogik faoliyatida bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish faoliyatini tizimli tashkil etish, bolalarga qardosh tillarni o'rgatishni innovatsion metodikalaridan to'g'ri foydalanish borasida qator isqlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta'limning isloh qilinishi, uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etilishi, qolaversa,

maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida bolaning kommunikativ, ijtimoiy, bilish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasining qo'yilishi bu tizim uchun mo'ljallangan qardosh tillarni o'rgatish, o'stirish vositalari - lug'atlar, leksik minimumlar, qo'shimcha axborot manbalariga bo'lgan talabni oshirmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o'rganish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashganda samaraliroq kechadi. Innovatsion yondashuvlar bolalarda stresssiz ta'lim muhitini yaratadi va til o'rganishga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tarbiyachi-pedagogning kasbiy mahorati muhim omil ekanligi aniqlandi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash uchun pedagog zamonaviy metodlarni bilishi va ularni amaliyotda to'g'ri tatbiq eta olishi zarur. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash mumkinki, rus tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish nafaqat til o'rganish sifatini oshiradi, balki bolalarning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rus tilini turli yosh guruhlarida o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan va samarali hisoblanadi. O'yin texnologiyalari, AKT va interfaol metodlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, rus tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida rus tilini o'qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi va pedagoglar uchun metodik tavsiyalar sifatida foydalanilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI 2030- YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA"
2. Axmedova D. R. *Rus tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi.* – *Til va adabiyot ta'limi*, 2022, №3, 45–49-bet. [Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal](#)
3. G'ulomova N. K. *Rus tili o'qitish jarayonida interaktiv mashg'ulotlar samaradorligi.* – *Til va adabiyot ta'limi*, 2022, №2, 39–44-bet. [Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal](#)
4. Jalolova B. B. *Oliy ta'limda xorijiy tilni o'qitishning metodik asoslari.* – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. [Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal](#)
5. Sodiqova Z. A. *Boshlang'ich ta'limda rus tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalar.* – *Pedagogika va psixologiya*, 2023, №2, 90–95- bet. [Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal](#)
6. Norqulova N. Sh. *Til o'rganishda o'quvchining psixologik tayyorgarligini shakllantirish.* – *O'zbek tili va adabiyoti*, 2023, №1, 29–34- bet. [Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal](#)
7. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullayev O.M., Baltabayeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. - T.: TMI, "Iqtisod-Moliya", 2019.